

XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA

Isomuxamedov Akbarjon

*Namangan muxandislik-qurilish instituti mustaqil tadqiqotchisi
iakbarjon@gmail.com ORCID: 0009-0004-2630-3840*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda daromadlarni va ishlab chiqarish xarajatlarini budjetlashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xo'jalik yurituvchi sub'ekt, biznes reja, buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari, daromad va xarajatlar rejasi, budjetlashtirish.

Аннотация: В статье исследованы вопросы бюджетирования доходов и производственных затрат применительно к хозяйствующим субъектам малого бизнеса.

Ключевые слова: хозяйствующий субъект, бизнес-план, бухгалтерский учет, производственные затраты, план доходов и затрат, бюджетирование.

“Byudjet” va “budjetlashtirish” atamalarining mazmun-mohiyatiga turli adabiyotlarda turlicha to'xtalib o'tilgan bo'lib ba'zi adabiyotlardagi fikrlarga bilan tanishib chiqsak. A.X. Pardaev va B.X. Pardaevlar fikriga ko'ra: “Byudjet – bu rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishdan oldin tuziladigan moliyaviy hujjat”[1], B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlar “... budjetlashtirish atamasi hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritilmagan, chunki korxonaning doimiy asosga qo'yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznes- rejalashtirish bilan cheklangan edi»[2], deb ta'kidlaydilar. Ular ushbu tushunchaga boshqaruv uslubi sifatida batafsilroq yondashib, «Byudjetlashtirish samarali boshqaruv usullaridan hisoblanib, quyidagi xususiyatlarga ega: korxonaning faoliyati bo'linmalar faoliyati bilan mujassam rejalashtiriladi; budjetlashtirish loyihasini ishlab chiqish imkonini yaratadi; tuzilgan biznesrejani tasdiqlaydi; o'zgaruvchan ichki va tashqi salbiy omillarni bartaraf etishga ko'maklashadi»[3], deb hisoblaydilar. Ushbu ta'rif va tavsiflarni e'tirof etgan holda, bizningcha, kichik biznes sub'ektlarida budjetlashtirishning maqsadlari moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish asosida moliyaviy vositalar, mablag' va zaxiralarning taxminiy hajmini, samaradorlikni oshirish maqsadida rejadagi davr mobaynida moliyaviy vositalar, mablag' va zaxiralarni ishlatishning maqbul yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishi va jahonning yetakchi davlatlari safiga qo'shilishi borasida izchil iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Jahon iqtisodiyotining rivojlanib borishi jadallashgan sari, xizmat kursatuvchi kichik biznes subektlari xam ko'payib bormoqda.

Barcha turdagi kichik biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini aniq yuritish orqali kerakli ma'lumotlarga ega bo'linadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli karori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisidagi nizom" asosida xarajatlar hisobi yo'lga qo'yiladi.

Kichik biznes sektorida faoliyat yuritadigan korxonalarda xarajatlarni budjetlashtirish muhim rol o'ynaydi. Uning natijasida biznesdan keladigan daromadlarni ham ob'ektiv ifoda qilish mumkin. Korxonalarda xarajatlarni budjetlantirish orqali ish sifati, maxsulot xajmi, xodimlar mexnatini samaradorligini ortishiga, sotuv xajmini va sifatini kupayishiga erishiladi.

Biznesni rejalashtirish yangi biznesni tashkil etish yo'lidagi muhim bo'g'in hisoblanadi. Biznes-reja – bu korxonaning kelgusi faoliyatidagi barcha muhim jihatlarni tavsiflovchi, duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qiluvchi va ushbu muammolarni hal etish yo'llarini belgilovchi hujjatdir.[4]

Daromad va xarajatlarni rejalashtirish biznes-rejani ishlab chiqishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, u iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari, bozor, inflyatsiya, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil qilinishida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar tendentsiyalari haqidagi ob'ektiv axborotlarga tayanishi lozim. Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni borayotgan, korxonalar mustaqil xo'jalik sub'ektlariga aylanib, ishlab chiqarishdagi «plyus» va «minus»lar uchun o'zlari to'liq javob berayotgan hozirgi sharoitlarda daromad va xarajatlar ko'rsatkichlarini aniqlash ob'ektiv zaruratga aylanib bormoqda.

Biroq, daromad va xarajatlar rejasi – moliyaviy rejalashtirishning materiallashgan natijalari – bozordan oldingi iqtisodiyotda xo'jalik sharoitlarida ham mavjud bo'lgan. U biznes-rejadagi kabi, texnik-moliyaviy-sanoat rejalarida ham yakuniy bo'lim hisoblangan. Hozirgi va ilgari amal qilgan hujjatlar o'rtasida farq shundaki, ilgari daromad va xarajatlar davlatga tegishli bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning barchasi korxonaga egasi qo'lidadir. Aynan u birinchi navbatda korxonaning zarar ko'rmasdan ishlashi, sarflangan xarajatlar foyda keltirishi, ishlab chiqarishning retabellik darajasi yuqori bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

Daromad va xarajatlar rejasida korxonani moliyalashtirish natijalari faoliyat turlari bo'yicha foydalilik nuqtai nazaridan keltiriladi. Unda korxonaning rejadagi davr uchun daromad va xarajatlarning hisob-kitob bahosi beriladi. Moliyaviy natijalar va xarajatlar moddalarini rejalashtirish 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan «Moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan amalga oshiriladi.[5]

Ushbu qoidalar mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarni aniqlashning yagona metodolgik asoslari va korxonaning moliyaviy natijalarini

shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Unda xarajatlar guruhlanib, moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy qoidadari keltiriladi.

Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari quyidagi foyda ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olinuvchi yalpi foyda, mahsulot sotishdan kelib tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT,$$

bu erda

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan kelib tushuvchi sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda - mahsulot sotishdan olinuvchi yalpi foyda bilan vaqt xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida plus boshqa daromadlar va minus asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bu erda

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatning boshqa daromadlari;

BZ - asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

3. Umumxo'jalik faoliyati natijasidan foyda (yoki zarar), quyidagicha hisoblanadi: asosiy faoliyatdan olinuvchi miqdori plus daromadlar minus moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bu erda

UF- umumxo'jalik faoliyati natijasidagi foyda;

MD – moliyaviy faoliyat daromadlari;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4. Soliq to'lanmasdan oldingi foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olinuvchi foyda plus favqulodda foyda minus favqulodda xarajatlar sifatida aniqlanadi.

$$STF = UF + FP - FZ,$$

bu erda

STF - soliq to'lanmasdan oldingi foyda;

FP - favqulodda vaziyatlarda olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlarda ko'rilgan zarar;

5. Yillik sof foyda, soliqlar to'langandan so'ng xo'jalik sub'ekti tasarrufida qoladi, soliq to'lanmasdan oldingi foydadan daromad (foyda) solig'i hamda

qonunchilikda belgilangan boshqa soliq va majburiy to'lovlarni chiqarib tashlash yo'li bilan topiladi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bu erda

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda) solig'i;

BS – boshqa soliq va to'lovlar.

Nizomga binoan barcha xarajatlar quyidagi guruhlariga taqsimlanadi:

mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiluvchi xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, jumladan, ishlab chiqarish xarakteridagi yuklama xarajatlari;

ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmagan, biroq davr xarajatlari tarkibiga kiritiluvchi xarajatlar, asosiy faoliyatdan olinuvchi foydani aniqlashda hisobga olinadi:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlari;

xo'jalik sub'ektining moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar, uning umumxo'jalik faoliyatida oluvchi foyda yoki zararini aniqlashda hisobga olinadi:

a) foizlar bo'yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyutalar bilan operatsiyalarda valyuta kursidagi salbiy farqlar;

v) qimmatli qog'ozlarga kiritilgan mablag'larning qayta baholanishi;

g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar;

favqulodda xarajatlar, daromad (foyda) solig'i to'lanmasdan oldingi foyda yoki zarar miqdorini aniqlashda hisobga olinadi.

Daromad va xarajatlar budjetini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

№	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
	Daromadlar va pul tushumlari	
1	Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinuvchi foyda	
2	Boshqa aktivlarni, xususan, moddiy zahira va nomoddiy aktivlarni sotishdan olinuvchi foyda	
3	Asosiy vositalarni sotishdan olinuvchi foyda	
4	Boshqa korxonalaridagi ulushlardan olinuvchi foyda	
5	Aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan olinuvchi foyda	
6	Valyuta kursidagi farqlar, kim oshdi savdolarida valyuta sotish yoki sotib olishdan olinuvchi daromad	
7	Asosiy vositalarni to'liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari	

8	Uzoq muddatli bank ssudalari	
9	Lizing bo'yicha mulk qiymatidan yuqori ijara to'lovi	
10	Aylanma vositalarning o'sishiga ssuda	
11	Boshqa daromadlar va pul tushumlari	
	Jami daromadlar va pul tushumlari	
	Xarajatlar va pul ajratmalari	
1	Foyda solig'i	
2	Mulk solig'i	
3	Aktsiyadorlarga beriluvchi dividendlar	
4	Kapital qo'yilmalar (uzoq muddatli investitsiya)	
5	Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar	
6	Uzoq muddatli ssudalar va ular bo'yicha foizlarning to'lanishi	
7	Aylanma vositalarning o'sishi	
8	Aylanma vositalarning o'sishiga beriluvchi ssudalarning to'lanishi	
9	Tovarlarni arzonlashtirish	
10	Umidsiz qarzlarni to'lash zahirasi	
11	Jamg'arma fonliga ajratmalar	
12	IITKI fondiga ajratmalar	
13	Ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar fondiga ajratmalar	
14	Moddiy yordam fondiga ajratmalar	
15	Sug'urta (zahira) fondi	
16	Boshqa xarajat va ajratmalar	
	Jami xarajat va ajratmalar	

Mazkur jadvalni tuzib chiqish quyidgilarni nazarda tutadi:

1. Aniq biznes-reja tuzgan holda ish boshlash. Busiz kelgusi faoliyat davomida zarar ko'rish yoki bankrotlik ehtimoli yuzaga chikadi.

2. Bozorni tahlil qilgan holda faoliyatni olib borish. Aks holda sotilmay qolda va budjet ijro etilmaydi.

3. Faoliyat boshlangandan so'ng mahsulot bir me'yorda realizatsiya qilinadi va belgilangan foydani olinadi.

4. Ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri belgilanadi. Eng asosiy ustuvorlik – mijozlarning talabini samarali qondirish bo'ladi.

5. Doimiy ravishda bozorni o'rganish va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb etishni joriy qilish.

Xulosa kilib aytganda, kichik biznes sub'ektlarida daromadlar va xarajatlarni budjetlashtirish ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B.106.

2. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. – T.: Yanginashr, 2011. – B.168
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti, Statistika axborotnomasi-<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/21516-2021#yanvar-dekabr>
4. Xotamov S.A. Kichik biznesni boshlash va biznes-reja ishlab chiqish. Toshkent 2019 yil,- www.uz.undp.org
5. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisidagi nizom-www.lex.uz
6. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
7. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013.*
8. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQLISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
9. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
10. Kholmiraev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
11. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
12. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (11 (54)), 54-57.
13. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
15. Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.

16. Холмирзаев, У. А. (2022). ҚИСКА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*, 2(1).
17. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
18. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
19. Voxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 64-70.
20. ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Кутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 406-412.
21. Voxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 12(04), 9-12.
22. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 17(12), 27-32.
23. Исомухамедов, А. (2022). УСЛУГИ В ПОЛЕ ЗАТРАТЫ НА ВЕДЕНИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА. УЧЕТНАЯ ЗАПИСЬ. ОСНОВЫ БЮДЖЕТИРОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 492-497.
24. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).